

2023– yilning yanvar– iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023– yilning yanvar–iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4374,3 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 4006,1 mlrd. so‘mni (102,4 %), o‘rmon xo‘jaligi – 271,2 mlrd. so‘mni (110,3 %), baliqchilik xo‘jaligi – 97,0 mlrd. so‘mni (108,6 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.



4374,3

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



4006,1

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



271,2

O‘rmon xo‘jaligi

03




97,0

Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (% da)



2023– yilning yanvar–iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 91,6 % – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 6,2 % – o‘rmon xo‘jaligi, 2,2 % – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2023– yilning yanvar–iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (755,4 mlrd. so‘m) va To‘rtko‘l (551,9 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo‘ynoq tumani (70,5 mlrd. so‘m) va Nukus shahrini (27,7 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘rsatkichidan (103,0 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Amudaryo (108,7 %), Mo‘ynoq (106,9 %), Chimboy (106,0 %), Bo‘zatov (104,9 %) va Xo‘jayli (103,2 %) tumanlarida kuzatildi, Qorao‘zak (100,2 %), Beruniy (98,7 %) tumanlarida va Nukus (82,3 %) shahrida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘shish sur‘ati




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023– yilning yanvar– iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3968,2 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 1213,4 mlrd. so‘mni (102,3 %), chorvachilik mahsulotlari – 2754,8 mlrd. so‘mni (102,4 %) tashkil qildi.


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

30,6 %
Dehqonchilik mahsulotlari



69,4 %
Chorvachilik mahsulotlari

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 74,2 % – dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 22,6% – fermer xo‘jaliklariga, 3,2 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)



2023- yilning yanvar–iyun oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nukus (35,5 %) va Qonliko‘l tumanlarida (32,2 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Nukus (99,5 %) shaharda, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Mo‘ynoq (7,5 %) tumanida qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Bo‘zatov tumanida (5,2 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Nukus tumanida (59,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Chimboy tumanida (0,1 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2023– yilning yanvar–iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1213,4 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 30,6 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming t.



O‘sish sur‘ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 115,4 ming t. donli ekinlar (2022– yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil qildi) ishlab chiqarildi. Donli ekinlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 74,2 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




Qoraqalpog‘iston
Respublikasi bo‘yicha
donli ekinlar
yetishtirish hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2023–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 49,9 ming tonna sabzavotlar (2022–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 3,6 % ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **sabzavotlar**
yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 28,4 ming t. kartoshka (2022– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 2,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 73,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **kartoshka**
yetishtirish hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2023–yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7,8 ming t. poliz (2022–yilning yanvar– iyuniga nisbatan 13,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 51,9 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **poliz**
yetishtirish hajmi, tonna



Meva va rezavorlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 10,8 ming t. meva va rezavorlar (2022– yilning yanvar– iyungacha nisbatan 3,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 62,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **meva va rezavorlar**
yetishtirish hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 352 tonna uzum (2022–yilning yanvar– iyuniga nisbatan 11,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 46,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **uzum**
yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2023– yilning yanvar– iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2754,8 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 69,4 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 41,9 ming t. go‘sh (2022– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 1,3 % ga ko‘p), 139,2 ming t. sut (2,7 % ga ko‘p), 183,7 mln. dona tuxum (2,2 % ga ko‘p), 75,0 ming dona qorako‘l teri (1,5% ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 3938,9 tonna baliq (107,9 %) ovlandi.

Go’sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 41,9 ming t. go'sht (2022– yilning yanvar –iyuniga nisbatan 1,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **go'sht (tirik vaznda)**
yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, % da



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 139,2 ming t. sut (2022–yilning yanvar– iyuniga nisbatan 2,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,2 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 183,7 mln. dona tuxum (2022–yilning yanvar– iyuniga nisbatan 2,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 85,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha olingan **tuxum**
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023–yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3938,9 t. (2022–yilning yanvar–iyuniga nisbatan 107,9 %) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 45,0 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha ovlangan **baliq**
hajmi, tonna




Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2023– yining 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,9 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,1 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 13,9 % fermer xo‘jaliklariga, 83,6 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,5 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 25,8 % fermer xo‘jaliklariga, 71,2 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,0 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 8,4 % fermer xo‘jaliklariga, 81,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 10,1 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2023–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1188,8 ming taga yetdi. 2022–yilning 1–iyul holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 19,7 ming taga (1,7 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, *ming bosh*




2023– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 345,4 ming taga yetdi. 2022– yilning 1– iyul holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 5,3 ming taga (1,5 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati, % da




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,8 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **sigirlarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh




2023– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1226,1 ming taga yetdi. 2022– yilning 1– iyul holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 32,9 ming taga (2,8 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 83,6 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **qo'y va echkilarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh




2023– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 27432 taga yetdi. 2022– yilning 1– iyul holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 425 taga (1,6 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sinh sur‘ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 71,2 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Qoraqalpog‘iston Respublikasi
bo‘yicha **otlarning**
umumiy bosh soni, bosh




2023–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni – 5088,9 ming taga yetdi. 2022–yilning 1–iyul holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 222,0 ming taga (4,6 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023–yilning 1–iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 81,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha **parrandalarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 61-222-76-07